

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in  
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



[publishscience.uz](http://publishscience.uz)



[publish\\_science\\_journal@mail.ru](mailto:publish_science_journal@mail.ru)



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

## YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY TARBIYA TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA KOMPARATIVISTIK FALSAFIY YONDASHUVNING O'RNI

Qosimov Sardorbek Sirojiddinovich

Andijon davlat pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: [sardorbekqosimov\\_1988@mail.ru](mailto:sardorbekqosimov_1988@mail.ru) ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-6635-4519>

### Annotatsiya.

Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar sharoitida ma'naviy tarbiya texnologiyalarini takomillashtirishning falsafiy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Komparativistik falsafiy yondashuvning nazariy imkoniyatlari yoritilib, milliy va xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Muallif ma'naviy tarbiyaning innovatsion modelini takomillashtirishda sivilizatsiyalar, madaniyatlar va ta'lim tizimlari o'rtasidagi qiyosiy tahlil muhim ilmiy vosita ekanligini asoslaydi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, global ma'naviy tendensiyalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish orqali ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi konseptual yondashuv taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy tarbiya, komparativistika, falsafa, Yangi O'zbekiston, qadriyatlar, tarbiya texnologiyalari, qiyosiy tahlil, innovatsiya, milliy taraqqiyot.

## РОЛЬ КОМПАРАТИВИСТСКОГО ФИЛОСОФСКОГО ПОДХОДА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ТЕХНОЛОГИЙ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Косимов Сардорбек Сирожидинович

Андижанский государственный педагогический институт, независимый исследователь.

### Аннотация.

В статье анализируются философско-методологические основы совершенствования технологий духовно-нравственного воспитания в условиях духовно-просветительских реформ, осуществляемых в Новом Узбекистане. Раскрываются теоретические возможности компаративистского философского подхода, а национальный и зарубежный опыт изучается на основе сравнительного анализа. Автор обосновывает, что сравнительный анализ цивилизаций, культур и образовательных систем является важным научным инструментом совершенствования инновационной модели духовно-нравственного воспитания. Кроме того, предлагается концептуальный подход, направленный на повышение эффективности духовно-нравственного воспитания посредством интеграции национальных ценностей, глобальных духовных тенденций и современных педагогических технологий.

**Ключевые слова:** духовно-нравственное воспитание, компаративистика, философия, Новый Узбекистан, ценности, технологии воспитания, сравнительный анализ, инновация, национальное развитие.

## THE ROLE OF THE COMPARATIVE PHILOSOPHICAL APPROACH IN IMPROVING SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION TECHNOLOGIES IN NEW UZBEKISTAN

Qosimov Sardorbek Sirojiddinovich

Andijan State Pedagogical Institute, Independent Researcher.

### Abstract.

This article analyzes the philosophical and methodological foundations for improving spiritual and moral education technologies in the context of the spiritual and educational reforms being implemented in New Uzbekistan. The theoretical potential of the comparative philosophical approach is examined, and national and international experiences are studied through comparative analysis. The author argues that the comparative analysis of civilizations, cultures, and educational systems serves as an important scholarly tool for improving an innovative model of spiritual and moral education. The article also proposes a conceptual approach aimed at enhancing the effectiveness of spiritual and moral education through the integration of national values,

global spiritual trends, and contemporary pedagogical technologies.

**Keywords:** spiritual and moral education, comparative studies, philosophy, New Uzbekistan, values, educational technologies, comparative analysis, innovation, national development.

**Kirish.** Globallashuv jarayonlari, raqamli sivilizatsiyaning jadal rivojlanishi va axborot oqimining keskin ortishi zamonaviy jamiyat oldiga inson ma'naviyatini saqlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularni zamon talablariga mos ravishda boyitib borish vazifasini qo'yimoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy kommunikatsiya vositalarining hayotga chuqur kirib kelishi inson ongi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ma'naviy tarbiyani faqat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan pedagogik jarayon sifatida emas, balki shaxs, jamiyat va davlatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim strategik ijtimoiy institut sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, globallashuv jarayonlari bir tomondan ilmiy-texnik taraqqiyot, madaniyatlararo muloqot va innovatsion rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratsa, ikkinchi tomondan milliy o'zlik, ma'naviy meros va axloqiy qadriyatlarga nisbatan turli mafkuraviy tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli yoshlarda mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy baholash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik hamda yuksak ma'naviy madaniyatni shakllantirish davlat siyosati va ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma'naviy tarbiyaning mazmuni insonning axloqiy fazilatlarini, ijtimoiy mas'uliyatini, fuqarolik pozitsiyasini, milliy g'ururini va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatini shakllantirish bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, ma'naviy tarbiya shaxsning intellektual, axloqiy, huquqiy, estetik va fuqarolik kamolotini ta'minlovchi uzluksiz ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, raqamli muhitda yoshlarni axborot xavfsizligi, mediasavodxonlik va raqamli madaniyat asosida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari va ma'naviy-ma'rifiy siyosat inson qadrini yuksaltirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayonda oila, ta'lim muassasalari, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari hamkorligi asosida samarali amalga oshiriladi.

Demak, globallashuv va raqamli transformatsiya[1] sharoitida ma'naviy tarbiyani takomillashtirish, uning nazariy-metodologik asoslarini boyitish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish mamlakatning barqaror taraqqiyoti, milliy xavfsizligi va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish, aholining farovon hayotini ta'minlash, ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish hamda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, yoshlarda milliy g'oyaga sadoqat, vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, qonunlarga hurmat, bag'rikenglik va ijtimoiy faollik kabi fazilatlarini shakllantirish mamlakatning barqaror taraqqiyoti va inson kapitalini rivojlantirishning muhim sharti sifatida e'tirof etilmoqda.

Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish ma'naviy tarbiyaning mazmuni, shakllari, usullari va texnologiyalarini zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy hamda raqamli taraqqiyot talablariga mos ravishda takomillashtirishni taqozo etadi. Bugungi kunda an'anaviy tarbiya usullari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim platformalari, interaktiv o'qitish metodlari, loyiha faoliyati, mediata'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki yoshlarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, mafkuraviy immunitet hamda ma'naviy barqarorlikni shakllantirish imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan birga, ma'naviy tarbiyaning samaradorligi uning oila, ta'lim muassasasi, mahalla va keng jamoatchilik hamkorligi asosida tashkil etilishiga ham bevosita bog'liq. Chunki shaxs ma'naviyatining shakllanishi uzluksiz ijtimoiy muhit ta'sirida kechadi. Shu bois ma'naviy tarbiyani tizimli tashkil etish, uni milliy qadriyatlar, tarixiy meros va umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, raqamli makonda uchrayotgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali profilaktik mexanizmlarni joriy etish bugungi kunning muhim ilmiy va amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ma'naviy tarbiyani yangi mazmun bilan boyitish, uning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Bu esa barkamol, raqobatbardosh, yuksak ma'naviyatli va fuqarolik pozitsiyasi mustahkam bo'lgan avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ma'naviy tarbiyaga oid tadqiqotlar keng o'rin olgan bo'lsa-da, ularning aksariyati milliy yoki xorijiy tajribani alohida o'rganish bilan cheklanadi. Komparativistik falsafiy yondashuv esa turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar va ta'lim tizimlarida shakllangan ma'naviy tarbiya modellarini o'zaro taqqoslash, umumiy qonuniyatlar hamda o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa milliy tarbiya tizimini ilmiy asosda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ma'naviy tarbiya masalasi falsafa, pedagogika, sotsiologiya va psixologiya sohalarida ko'plab olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan bo'lib, uning nazariy-metodologik asoslari turli ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan. Falsafiy tadqiqotlarda ma'naviy tarbiya insonning axloqiy kamoloti, qadriyatlar tizimi va hayot mazmunini anglash bilan bog'liq

ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin etilsa, pedagogik yondashuvlarda shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim omili sifatida baholanadi. Psixologiya sohasida esa ma'naviy tarbiya shaxsning ehtiyojlari, motivlari, qadriyat yo'nalishlari, ijtimoiy faolligi va ma'naviy immunitetini shakllantiruvchi jarayon sifatida tadqiq qilinadi. Sotsiologik tadqiqotlarda[1] esa uning jamiyat barqarorligi, ijtimoiy munosabatlar va milliy identitlikni mustahkamlashdagi o'zni alohida ta'kidlanadi. O'zbekistonda ma'naviy tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Jumladan, M. Quronov milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg'unligi asosida tarbiya tizimini takomillashtirish masalalarini yoritgan. S. Nishonova pedagogika nazariyasi va tarbiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, zamonaviy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyatini asoslab bergan. N. Egamberdieva ijtimoiy pedagogika doirasida shaxsni ijtimoiylashtirish va ma'naviy rivojlantirish omillarini tadqiq etgan. J. Hasanboev, X. To'raqulov, X. Ibrohimov kabi olimlar pedagogika nazariyasi, milliy tarbiya va ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning ilmiy asoslarini ishlab chiqqanlar.

Shuningdek, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, milliy qadriyatlarni asrash, yoshlarda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar so'nggi yillarda yanada faollashdi. Bu ilmiy ishlarda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, raqamli ta'lim muhitida ma'naviy tarbiyani tashkil etish va ta'lim muassasalari hamda oilaning hamkorligini kuchaytirish masalalari alohida o'rin egallaydi.

Xorijiy olimlar orasida J. Dyui, L. S. Vygotskiy, J. Bruner, P. Freyre kabilarning ta'lim va tarbiyaning shaxs rivojidadagi ahamiyatiga oid qarashlari ma'naviy tarbiya nazariyasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan. Ular shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ijtimoiy hamkorlik, faol o'qitish hamda qadriyatlarga asoslangan tarbiya g'oyalarini ilgari surib, zamonaviy pedagogikaning muhim metodologik asoslarini shakllantirgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda ma'naviy tarbiyaning nazariy asoslari, milliy qadriyatlar va tarbiya mazmuni yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, raqamli sivilizatsiya[2], globalashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ma'naviy tarbiyaning innovatsion texnologiyalari, raqamli pedagogik muhit imkoniyatlari hamda yoshlarda mediamadaniyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish mexanizmlarini kompleks tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Xorijiy adabiyotlarda esa qiyosiy ta'lim, komparativistika[3], intermadaniy muloqot[4] va qadriyatlar falsafasiga oid yondashuvlar keng yoritilgan. Shu bilan birga, Yangi O'zbekistonda ma'naviy tarbiya texnologiyalarini aynan komparativistik falsafiy yondashuv asosida kompleks tadqiq etish, milliy va xalqaro tajribalarni integratsiya qilgan holda yangi konseptual modelni ishlab chiqish masalasi yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar ma'naviy tarbiya texnologiyalarini yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu jarayonda komparativistik falsafiy yondashuv milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish, ularning ijobiy jihatlarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: rasmiy nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80 b.  
URL: <https://library.tdau.uz/uz/books/3683>  
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.  
URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b. – ISBN 978-9943-6992-3-6.  
URL: <https://library.academy.uz/2022/02/01/mirziyoev-sh-m-yangi-ozbekiston-strategiyasi/>
3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016. – 56 b. – ISBN 978-9943-28-941-3.  
URL: <https://e-library.sammu.uz/uz/book/1003>
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b. – ISBN 978-9943-04-067-0.  
URL: <https://akbt.tkti.uz/uz/books/80>
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 320 b. – ISBN 978-9943-27-613-0.  
URL: <https://e-library.sammu.uz/uz/book/510>
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 200 b. – ISBN 978-9943-05-154-6.  
URL: <https://akbt.uzdxa.uz/uz/books/599>
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2018. – 172 b. – ISBN 978-9943-5219-3-3.  
URL: <https://akbt.urdu.uz/uz/books/18148>
8. Haydarov F. I., Xalilova N. I. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Aloqachi, 2007. – 176 b.  
URL: <https://akbt.urdu.uz/uz/books/8100>
9. Abdullayeva M., Jalolov A., Nazarov Q. va boshq. Falsafa: ensiklopedik lug'at. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – 345 b. – ISBN 978-9943-07-115-5.  
URL: <https://kitobxon.com/oz/kitob/falsafa-enciklopedik-lugat>
10. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati / tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 760 b. – ISBN 978-9943-03-234-7.  
URL: [https://lib.shdpi.uz/cgi-bin/irbis64r\\_plus/cgiirbis\\_64\\_ft.exe?C21COM=S&I21DBN=IBIS\\_FULLTEXT&LNG=ru&P21DBN=IBIS&S21ALL=%3C%3E%3D811.17%2FN32-192565060%3C.%3E](https://lib.shdpi.uz/cgi-bin/irbis64r_plus/cgiirbis_64_ft.exe?C21COM=S&I21DBN=IBIS_FULLTEXT&LNG=ru&P21DBN=IBIS&S21ALL=%3C%3E%3D811.17%2FN32-192565060%3C.%3E)